www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

BOSHLABG`ICH SINF DARSLIKLARIDA PUBLITSISTIK MAQOLA VA MATNLAR IFODASI

Dilnavoz To`xtayeva
BuxDU, jurnalistika ta'lim yo`nalishi, 2-kurs talabasi.
B.S.Jamilova
f.f.d. prof

Annotatsiya:maqolada boshlang`ich sind darsliklaridagi publitsistik maqolalar va ularni o`rganish haqida fikr yuritilgan.
Kalit so'zlar:publitsistika, maqola, matn, ilmiy-ommabop, nutq, kichik asar, ijtimoiy hayot, g`oya, tarixiylik..

Yosh avlod ma'naviy kamolotini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanmish bolalar adabiyotining turli shakl va ko`rinishlari - darsliklar va o`quv qo`llanmalari, badiiy adabiyot namunalari bilan bir qatorda ilmiy-ommabop maqolalar ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, bu janr namunasi boshlang`ich sinf o`qish darsliklaridagi hozirjavob ijod namunasi sifatiuda ijtimoiy hayotda ro`y berayotgan voqea-hodisalarni o`quvchiga birinchi navbatda yetkazadi. Yashab turgan zamin va davr nafasi, tarixiy o`tmishimiz, ajdodlarimiz, buyuk shaxslar haqida har tomonlama talqin etilgan voqelik ijtimoiy mohiyat kasb etib, o`quvchida teran mushohada va fikr uyg`otishi, ma'naviy yetakchilik vazifasini o`tashi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillardandir.

Ilmiy-ommabop maqolalarni o`qitishdan asosiy maqsad ham shu ma'noda bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muyyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o'rgatishdan iborat. Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog`lab o`qiltish kishilar ilgari baxtli hayot uchun, o`z hayotlarini yaxshilash uchun, ota-bobolarimiz dushmandan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi; bolalar mehnat hayotning asosi ekanini, kishilar hayoti mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Maqola arabcha so`zdan olingan bo`lib, *nutq, kichik asar* ma'nolarini bildiradi. Shuningdek, to`plam, jurnal, gazeta va shu kabilar uchun yozilgan yoki ularda bosilgan, hajmi uncha katta bo`lmagan ilmiy yoki publitsistik asardir. Publitsistika esa lotincha "publikus" so`zidan olingan bo`lib, "ijtimoiy" ma'nosini bildiradi hamda adabiyotning alohida turini tashkil etadi. U yozilish uslubiga ko`ra ilmiy va badiiy ijod namunalaridan farqlanadi. Fanga aloqador asarlar ilmiy uslubda, badiiy ijod namunalari badiiy uslubda yaratilgani kabi publitsistik asarlarning ham o`z uslubi mavjud. Publitsistik asarlar, avvalo, faqat publitsistikagagina xos ijtimoiy ruhdaligi bilan ajralib turadi. Fanning asosiy predmetini ilmiy nazariya, adabiyotnikini insonshunoslik tashkil qilsa, publitsistikaning asosiy predmetini ijtimoiy-siyosiy hayot, moddiy turmushdagi dolzarb muammolar tashkil etadi. Tasvir predmetining o`zgachaligi, voqelikni ifodalash yo`nalishi va uslubining boshqachaligi jihatidan ham publitsistika ijod sohasining mustaqil turi hisoblanadi [1,17]. Bundan tashqari, publitsistik asarlar ma'lum ijtimoiy-siyosiy, moddiy voqelikni baholash maqsadida yaratilishi bilan ham o`ziga xoslik kasb etadi. Ularda o`quvchiga murojaat etish, ijtimoiy voqelikda faol ishtirok etishga chaqiriq ruhi etakchilik qiladi. Zero, publitsistik asarlar o`quvchida hayot, mavjud ijtimoiy sharoit, tarixiy davr to`g`risida tushuncha tasavvur hosil etishga xizmat qiladi. Publitsistika ijtimoiy hayot yangiliklari, muammolarini tez va haqiqiy aks ettirish, tarixiy dalillarni umumlashtirish, baholash imkoniyatiga egaligi tufayli o`zgachalik kasb etadi. **Maqola** publitsistikaning alohida janri sifatida o`ziga xos ko`rinishlariga ega. U mavzusiga ko`ra ijtimoiy-siyosiy, **ilmiy-ommabop** yoxud, adabiy-tanqidiy bo`lishi mumkin. Va ularning har biri yana ichki bo`lininsh hamda xususiyatlarga egadir. **Maqola**da ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib,nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati,

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg`or ish tajribalari ommalashtiriladi.nazariy maqola va targ`ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g`oya, istiqlol mafkurasining asoslargi va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o`quvchining g`oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat [3,543]. Shu mantiqdan qaralsa, ilmiy-ommabop maqolalarning mohiyati oydinlashadi. Chunki **ilmiy-ommabop adabiyot**–xalq ommasini fan va texnika masalalari, yutuqlari hamda fan arboblari tarjimai hollari bilan tanishtirish uchun mo`ljallangan nashrlar (kitob, risola, jurnal va b.) hisoblanadi. Bu nashrlar ilmiy masalaning mohiyatini to`la saqlagan holda uni keng omma uchun tushunarli uslubda bayon etadi, o`quvchining g`oyaviy-ilmiy saviyasini o`stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Shunga o`xshash **ilmiy-ommabop kinoda** barcha ilm jabhalari–fan, texnika muvaffaqiyatlari targ`ib qilinadi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning turli jihatlarini aks ettiradi. Bunda tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari xulosalab ko`rsatiladi, murakkab ilmiy muammolarni ommaga tushunarli qilib yetkazadi. Shu mantiqdan qaralsa, boshlang`ich sinf o`qish kitoblaridagi **ilmiy-ommabop maqolalar** o`quvchilarning bilishi zargur hisoblangan ilmiy manbalar, tarixiy shaxslar faoliyati, ularning buyuk kashfiyotlari, yoxud, ko`pgina sohalarda erishilgan fan va texnika yutuqlari o`quvchilar tushunchasiga moslab bayon qilinadi. Demak, *ilmiy-ommabop maqola–ilmiy kashfiyotlar, ma'lumotlarni ommaga tushunarli qilib yetkazilishi hamda maqola janri uslubida bayon qilinishidir*.

Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, *boshlang`ich sinf o`qish kitoblaridagi ilmiy – ommabop maqolalar* har bir sinf o`quvchilarining yosh xususiyatiga qarab turli mavzu va ko`rinishda aks etadi. Bunday maqolalar nazariy ma'lumotlar, aniq ilmiy manbalar asosida o`quvchilarga moslab hikoya qilinadi, tarixiy shaxs yoxud, voqelik haqida, ijtimoiy hayotdagi muhim hodisalar to`g`risida mushohada yuritiladi, mulohazaga to`yinadi, ibratomuz, ma'rifiy saboq vazifasini o`taydi.

Muhabbat Hamidovaning "Ona-Vatan" **ilmiy-ommabop maqola**si o`z mavzusi bilan ajralib turadi. Unda O`zbekistonning bugungi qiyofasi, o`zgarishlar, yangi qad ko`targan muhtasham binolar, Asaka shahridagi ulkan avtomobil zavodi va u yerdan chiqayotgan turli rusumdagi masalan, "Matiz", "Damas", "Neksiya", "Lasetti", "Epika", "Kaptiva" kabi yengil avtomobillar, samarqanddagi SamAvto zavodidan esa mikroavtobuslar ishlab chiqarilishi sanab o`tilgan. Umuman, maqolada, avvalo Vatan saxovati va uning ona kabi muqaddasligi ta'rif-tavsif etiladi.

Shunga o`xshash, M.Ibrohimovaning "Zamonaviy oila" (116-b), E.Malikovning "Unutilmas bayram" (119-b) ilmiy-ommabop maqolalari davr nafasini o`zida yorqin aks ettira olgani bilan e'tiborli. "Zamonaviy oila" maqolasi Maqolada tilga olingan Behruzlarning oilasi chindan ham zamonaviy–kelajak taraqqiyotiga xizmat qila oladi. Oilada kutubxona bo`lishi, kitob o`qish oila a'zolarining sevimli mashg`uloti ekani, kichkintoy Behruzning akasi o`zbek tilidan tashqari yana rus, ingliz, xitoy va fransuz tillarini bilishi, opasi esa o`z rasmlari bilan Yevropa mamlakatlarida ko`rgazmalar tashkil etgani–chindan havas qilgulik. Oiladagi ma'naviy tarbiya bolalarning yurtboshimiz orzu qilganidek, hech kimdan kam bo`lmagan yoshlar bo`lib yetishishi hamda ertangi kun egasi ekani maqolada o`z ifodasini topa olgan.

"Unutilmas bayram" maqolasi o`z mavzusiga ko`ra boshlang`ich sinf o`qish kitoblarida deyarli kuzatilmagan hodisalardan. Unda nogiron bolalar hayotidan hikoya qilinib, bir umr nogironlik aravachasiga mixlangan, yoki, qaysidir a'zosi

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

nogiron bo`lgan bolalarga ulashilgan quvonchning juda katta ijobiy ta'siri xususida so`z boradi. Bunday maqolalar, kattalarni ogohlikka, bolalar orasida ko`proq bo`lishga undasa, bolalarni sog`ligining qadriga yetish, bilim olish, hunar o`rganishdan charchamaslikka da'vat etadi.

Boshlang`ich sinf o`qish kitobidagi ilmiy-ommabop maqolalar qatorida Erkin Malikovning "Toshkent" matnini o`rganish ham maqsadga muvofiq. Unda poytaxt shahrimizning tarixiy nomlanishi, uning o`tmishdagi shuhrati, qadim darvozalari, xalq hunarmandchiligiga xos ma'lumotlar o`z ifodasini topgan. "Juda qadimda Toshkent boshqacha atalardi",-deb boshlanishining o`ziyoq bugungi yosh avlod diqqatini tortadi. Chunki, biz o`tgan asrning 30-yillaridan boshlab O`zbekiston Respublikasining poytaxti hisoblansa, shu davr ichidagi voqealar, o`zgarishlar ko`pchilik uchun tarixga aylangan. Shu sababli, ilmiy-ommabop maqolada berilgan ma'lumotlar ahamiyati katta. Uni mutolaa qilgan o`quvchilar qadimda Choch degan viloyatning tashkil topganidan voqif bo`ladilar. Shosh nomi ham shuning sinonimi sifatida qo`llab kelingan. Maqolada keltirilishicha, odamlari dushmandan saqlanish uchun shahar atrofini tosh devorlar bilan o`rashgan. Shaharga kirib-chiqish uchun ulkan darvozalar qurib, soqchilar qo`yishadi. Darvozalarni, devorlarni sayyohlar: "Bu yer Toshqal'a, Toshminor ekan",-deb tarix sahifalariga yozib qoldirishgan. Bu nomlar keyinchalik Toshkent degan nomni keltirib chiqargan.

Milliy istiqlolga erishgach o`quvchilar oz yurtlari tarixini keng o`rgana boshladilar. Maktabda "O`zbekiston tarixi" fani o`tila boshladi. Jumladan, eng yirik shaharlar, yurtimiz poytaxti haqida mufassal bilimga ega bo`lish bugungi o`quvchilarning mas'uliyatli vazifasidir. Shu ma'noda, 3-sinf o`qish kitobida berilgan bunday ilmiy-ommabop maqolalar poydevor vazifasini o`taydi. Maqolada qadim Toshkent darvozalari haqida berilgan quyidagi ma'lumot hamchunin qimmat kasb etadi:

"Toshkentning o`n ikki darvozasi bo`lgan. Bu darvozalar Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag`bon, Chig`atoy, Ko`kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog`och, Qo`qon, Qashqar, Qo`ymas nomlari bilan atalgan. Darvozalar tunda yopilgan va tonggacha shaharga hech kim kiritilmagan."

Ilmiy-ommabop maqolada shunga o`xshash, Toshkentning o`tmishda savdo markazlaridan biri bo`lgani, u yerda hunarmandchilik, bog`dorchilik, dehqonchilik, savdo-sotiq rivojlangani, bozor rastalarida ipak mato, ip gazlama, zarbof kiyimlar ko`p bo`lgani ta'kidlanadi. Ayniqsa, Toshkent bilan Balx, Xiva, Buxoro, Samarqand, Ko`lob, Shahrisabz kabi shaharlar o`rtasida savdo rivojlangani, Toshkentda qurilgan Baroqxon va Ko`kaldosh madrasalarigda boshqa o`lkalardan ham kellgan talabalar tehsil olishgani haqidagi mulohazalar ham boshlang`ich sinf o`quvchisi uchun yangi bilimlarga ega bo`lish manbai hisoblanadi. 3-sinfda bunday maqolalarni o`rganishda o`qituvchining o`zi tariximizni yaxshi bilishi, shu bilan birga so`z ma'nolari ustida ishlay bilishi lozim. Hatto, darvoza nomlariga taalluqli manbalarni, matnda uchraydigan qadimgi hunarmandchilikka oid tushunchalarga ega bo`lsa, aniqrog`i mavzuni o`tishdan ilgari, o`qituvchining o`zi matn mazmun va mohiyatini to`g`ri anglasa, o`quvchilarga qiziqarli o`ta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamilova B. O`zbek bolalar publitsistikasi. T., "Fan", 2006.
2. To`xliyev B. Adabiyot o`qitish metodikasi. Toshkent, 2010, 168 b.
3. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild, Toshkent,2003, 543-b.
4. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O`qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. T., "O`zbekiston", 2017, -224 b.
5. O`zbek tilining izohli lug`ati. II jild. T.: "O`zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- 672 b